HUNARMANDLAR UCHUN YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR

N.Egamberdiyeva
tadqiqotchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.15726805

Hunarmandlar uchun berilgan imtiyozlar, ularga bo‘lgan e’tibor natijasida 2010-yilda “Hunarmand” uyushmasi a’zolari soni 20871 kishini tashkil etgan bo‘lsa bu ko‘rsatkich 2015-yilga kelib 22141 kishini tashkil etgan. Ammo 2016-yilda a’zolar soni 2450 kishiga kamayib, 19691 kishini tashkil etgan, 2017-yilda esa 11915 kishini, 2018-yilda esa 28002 kishini tashkil etgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi «Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF–5242-son Farmoniga asosan hunarmandlar 2017-yil 1-dekabrdan qat’iy belgilangan soliq to‘lashdan ozod etildilar, natijada 2018-yilda hunarmandlar soni ko‘payib, 28002 tani tashkil etdi[1].

O‘zbek xalqi azaldan hunarmandchilikning deyarli barcha sohalari bilan shug‘ullanib kelmoqda, asrlar davomida uy - ro‘zg‘or kasblari rivojlanib yangidan - yangi hunarmandchilik turlari yaratilmoqda. “Yigit kishiga 40 hunar oz” degan naql aynan mehnatkash o‘zbek xalqi uchun mos naqldir. Hunarmand ustalar tayyorlagan buyumlarga bo‘lgan talab hech qachon kamaymaydi.

Hozirgi kunda pichoqchi, tunukachi, tikuvchi, duradgor, misgar, temirchi kabi ko‘plab hunarmandlar o‘z uylarida odamlar ehtiyojlarini qondirish uchun hunarmandchilik buyumlarini yaratadilar va shu bilan birga daromad orttiradilar. Uyda hunarmandlar yaratgan buyumlar sifati, bejirimligi, qulayligi va asosiysi narxi aholiga qulaylagi bilan farqlanib turadi.

Mamlakatimizning hamma joyida hunarmand ustalar yaratgan buyumlar qadrlanadi. Keyingi yillarda yog‘ochga qayta ishlov berish bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan usta - hunarmandlar faoliyatida ham ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, milliy qadriyatlarni, an’anaviy hunarlarni tiklashga alohida e’tibor qaratildi.

Bugungi kunda Toshkent hududi bo‘yicha ushbu tizimda faoliyat yuritib kelayotgan bir nechta badiiy hunarmandchilik ob’ektlarini misol keltirish mumkin. Xususan, Abulqosim madrasasi va Xasti Imom majmuasida joylashgan Baroqxon madrasasida ko‘plab hunarmandlar faoliyat yuritib kelmoqda. Xozirda ushbu binolar Toshkent shahridagi badiiy hunarmandchilikning rivoji bo‘yicha

[1] Abdullaeva R.G. “Hunarmandchilik faoliyatini tadbirkorlikni kengaytirish orqali rivojlantirishning nazariy asoslarini takomillashtirish” mavzusidagi iqtisodiyot fan.fal.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2019.

ta’mirlandi va badiiy hunarmandlar uchun ijodiy ustaxona qilib topshirildi. Hozirgi paytda, A.Azlarov, Sh.Xakimov, I.Tursunboev, S.Raxmatullaev, Z.Hasanov, A.Abdurazzoqov, A.Egamberdiev, M.Qurbonaliev, P. Hasanov, M. Po‘latov, B. karimov kabi ko‘plab ustalar ushbu badiiy hunarmandchilik binolarida faoliyat

Ular badiiy hunarmandchilikning yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilik, naqqoshlik, mayda plastika, miniatyura(shkatulka va laganlarga tushirilgan miniatyura) kabi turlarida zamonaviy uy ro‘zg‘or va bezak uchun mo‘ljallangan buyumlarini yasab kelishmoqda.

yog‘och o‘ymakorligi buyumlari naqqoshlik va miniatyura san’ati bilan uyg‘unlashib ketmoqda. Asosiy xomashyolar yong‘oq, chinor, tut, tol, terak hisoblanadi. Bu yog‘ochlar o‘z tuzilishi va shakli jihatidan boshqa daraxtlar yog‘ochidan ajralib turadi. Yog‘och o‘ymakorligidagi asosiy mavzular karvon, markazida arab yozuvlari tushirilgan laganlar,sevgi-muhabbat,ov,tarixiy obidalardan iborat.

Kulolchilik o‘zbek xalqi badiiy hunarmandchiligining eng qadimiy turlaridan biri bo‘lib, badiiy an’analarni boyishi va o‘zgarishi bilan bog‘liq uzoq taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Zamonaviy Toshkent kulolchilik buyumlarida anor mevasi, bodom, qoqi gul,paxta guli naqshlari ko‘plab uchraydi.

Mayda plastika yoki xalq o‘yinchoqlari qadimda va o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda loydan yasalgan o‘yinchoqlar va koroplastikadan kelib chiqqanligi ma’lum. Bugungi kun Toshkent badiiy xunarmandlarining ishlarida asosan xajviy va taniqli qahramonlar bilan bir qatorda sovg‘abor anor shaklining bezakli turlari, me’moriy binolarning o‘ta kichraytirilganko‘rinishidagi shakllarini uchratamiz.

Naqqoshlik xalq amaliy san’atining keng tarqalgan turi hisoblanadi. Ganch va yog‘ochga naqsh berish bugungi kunda ommalashib bormoqda.Zamonaviy naqqoshlik buyumlarida jiyda guli, arab yozuvlari, she’rxonlik, tarixiy obidalar, musiqa kabi mavzularni ko‘ramiz.

Zamonaviy badiiy hunarmandchilikning ko‘plab turlari miniatyura san’ati bilan uyg‘un tarzda yaratilmoqda. Masalan yog‘och o‘ymakorlik buyumlari sanalgan kichik shkatulkalar.turli xajmdagi laganlar xattoki devoriy bezak ko‘rinishlarida ham miniatyuraviy tasvirlarni uchratamiz. Ushbu tasvirlarda asosan chordana qurib o‘tirgan shoiru-olimlar, karvon, diniy obidalar ko‘rinishidagi mavzular ustunlik qiladi.

Umuman olganda, ushbu ikki badiiy hunarmandchilik ob'ektlarida amaliy san'at buyumlarining yasash hamda ularni bozor iqtisodiyoti talabidan kelib chiqqan xolda sotish ishlari avj olgan. Bugungi kundagi, bozor iqtisodiyotining amaliy san'at buyumlariga salbiy ta'siri achinarli. Deyarli barcha hunarmandlarning ijodiy ishlarida an'anaviy maktab naqshu nigorlaridan ko'ra ko'proq bir buyumning boshqa bir buyum unsurlari bilan qorishib ketganiga guvoh bo'lamiz. Tabiiyki bu xolat yaratilayotgan amaliy san'at buyumining badiiy xususiyatini kamaytirib qo'ymoqda. Yog'och o'ymakorlik va kashtachilik buyumlarida miniatyuraning qorishuvi, naqqoshlik va miniatyura uyg'unligi aks ettirilgan buyumlar va shu kabi ko'plab yangiliklarni yaratish ommalashib bormoqda. Ushbu turdagi zamonaviylik quvonarli albatta, biroq necha asrlardan buyon an'anaga aylanib kelayotgan asl san'at namunalaridagi o'ziga xoslikni saqlab qolish va uni qayta tiklash muammosi bugungi kun amaliy san'at ustalari oldidagi muhim masalalardan biri deb hisoblash lozim. Yaratilayotgan badiiy hunarmandchilik buyumlarining saviyasiga alohida e'tibor qaratish shu bilan birgalikda, ijodiy ishlarning badiiylik xususiyatini saqlab qolish muammosi dolzarbdir. Zamonaviy Toshkent badiiy hunarmandlarining ba'zilari yaratayotgan bugungi kundagi amaliy san'at buyumlari san'at dunyosidagi ekologiyani biroz buzib qo'ymoqda. Asl an'analar nisbatan bo'lsada saqlanishi tarafdorimiz.Zero, o'tmish an'analari avlodlarni bog'lovchi ko'rinmas rishtadir. Madaniy meros hamda xalq badiiy hunarmandchiligini omonat bilib, uni asrab avaylash salohiyati jamiyatning taraqqiy etganlik darajasi hamda axloqiy barqarorligi mezoni sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo vazirligi, O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo'mitasining "Xorijiy mamlakatlarda o'tkaziladigan ko'rgazma, tanlov va yarmarkalarda namoyish etish uchun hunarmandchilik mahsulotlari olib chiqilishining soddalashtirilgan tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qo'shma qarori hunarmandlarni xorijga chiqish ishtiyoqlarini yanada oshirdi va hozirda har yili yuzlab hunarmandlar o'nlab xalqaro festivallarda erkin qatnashib kelmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi "Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazib borishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5841-sonli farmoni bilan har ikki yilda bir marta sentabr oyida Qo'qon shahrida Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazish asoslari belgilab berildi. Hozirgi vaqtda hunarmandchilik san'ati xalqimiz kundalik hayotidan tobora mustahkam o'rin egallamoqda. Mamlakatimizda har yili mazkur yo'nalishda

yuzdan ziyod festival va yarmarkalar, savdo ko‘rgazmalari va boshqa tadbirlar o‘tkazilayotgani ham shundan dalolat beradi.

Keyingi yillarda xalqaro festivallar, ko‘gazmalar o‘tkazish hunarmandlar faoliyatida muhim o‘rin tutmoqda. Shahrisabzda maqom, Termizda baxshichilik san’atiga bag‘ishlangan xalqaro festivallar, Buxoro shahrida “Ipak va ziravorlar”, Marg‘ilonda “Atlas bayrami” anjumanlari muntazam o‘tkazib kelinayotgani, ularda dunyoning ko‘plab davlatlaridan madaniyat va san’at namoyandalari, bu yo‘nalishda o‘zining ilmiy ishlari, amaliy faoliyati bilan tanilgan olimlar va mutaxassislar ishtirok etayotgani diqqatga sazovordir. 2019-yil 10-15-sentabr kunlari Qo‘qon shahrida YuNESKO shafeligida birinchi Xalqaro hunarmandchilik festivali o‘tkazilgani, Jahon hunarmandlar tashkiloti tomonidan ushbu shaharga “Jahon hunarmandlari shahri” maqomi berilgani o‘zbek xalq amaliy san’atining xalqaro miqyosdagi yuksak e’tirofi bo‘ldi. Jahon xalq amaliy san’atini, uning ajralmas qismi bo‘lgan o‘zbek milliy hunarmandchiligini asrab-avaylash va rivojlantirishga qaratilgan ana shunday ezgu ishlar ushbu bebaho boylikni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, bu yo‘ldagi sa’y-harakat va imkoniyatlarimizni birlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Агзамова Г.А. Ўрта Осиё хонликларида ҳунармандчилик ва савдо.: Тарих фан. док. … дисс. – Тошкент, 2000. – 348 в.
2. Atlas of Central Asian artistic crafts and trades. A. Khakimov – author of the scientific project and author of the next chapters – Introproduction, Ceramics, Copper Embossing, Knife making.. Қаранг: Atlas of artistics and trades of Central Asia. Vol. I. – Tashkent, 1997. – P. 158.
3. Ҳакимов А. Ўзбекистоннинг бадиий кулолчилик мактаблари // Восток. – Тошкент, 1999. – № 1. – Б. 76-79; Гюль Э. Ҳунармандчилик анъаналарини сақлаб // San’at. – Тошкент, 1999. – № 2. – Б. 32;
4. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. – Тошкент: Меҳнат, 1991. – 384 б.
5. Davlatova S.T. O‘zbekistonning an’anaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida (O‘zbekistonning janubiy hududlari misolida XIX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari). – Toshkent. Yangi nashr, 2018. – 368 b.